

KASBIY STANDART

Kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagoglari

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: ushbu Kasbiy standart Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagoglari kasblari bo'yicha kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Andragogika – kattalarni o'qitish usullari va texnologiyalarini o'rgatish va asoslash bilan shug'ullanadigan fan

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

davlat akkreditatsiyasi – davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari – ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

davlat ta'lim tashkiloti – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq

tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb kartasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan ro'yxati;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – ishchi yoki mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyat jarayonida bajariladigan, muayyan natijaga erishishga qaratilgan va kasbiy standart doirasida aniq tavsiflangan vazifalar majmuasi bo'lib, u mehnat jarayonining mustaqil qismini tashkil etadi;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro aloqa jarayoni bo'lib, unga ma'lum vazifani bajarish natijasida erishiladi;

mehnat faoliyati turi — kasbiy faoliyat sohasining ajralmas qismi bo'lib, muayyan mehnat vazifalari hamda ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarning yaxlit majmuasini ifoda etadi;

mahorat – biror masala (mantiqiy, hissiy, ijodiy va amaliy tafakkurni qo'llash)ni hal etish va faoliyatni amalga oshirish maqsadida bilimlarini qo'llash va kompetentligini namoyish etish qobiliyati;

malaka berish – rasmiy ta'lim va o'z-o'zini o'qitish orqali olingan bilim va ko'nikmalarni baholash jarayoni. Ushbu baholash natijalariga ko'ra sertifikat, diplom, yoki malakani tasdiqlovchi boshqa hujjat (malaka darajasi) beriladi;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta'lim tashkiloti – davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pedagog – (yunon tilidan – παιδαγωγός bola yetaklovchi) – pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi, shu soha bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim tashkilotlari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan, aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejali ta'lim;

tajriba – mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallanadigan bilimlar va mahoratlar;

ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lim oluvchilar, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

o'quv metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovadan iborat majmua.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ-637-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-son qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zMst 640:2025 (IFUT-2.1);

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 3-martdagi 4-q/q-son, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil 28-fevraldagi 8/1-2025-Q-son va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 3-martdagi 236-son qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

DTS – Davlat ta'lim standartlari;

IFUT –Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Kasbiy ta'lim tashkilotlari pedagoglari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Kasbiy ta'lim sohasida muayyan kasb bo'yicha zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	Q seksiya: Ta'lim 85 ta'lim 85.3 O'rta va o'rta ta'limdan keyingi ta'lim 85.32.0 Professional o'rta ta'lim 85.33.0 O'rta ta'limdan keyingi ta'lim 85.5 Ta'limning boshqa turlari 85.51. Sport ta'limi, jumladan ko'ngil ochish maqsadidagi ta'lim 85.52. Madaniyat sohasidagi ta'lim 85.59. Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari 85.51.0 Sport ta'limi, jumladan ko'ngil ochish maqsadidagi ta'lim 85.52.0 Madaniyat sohasidagi ta'lim 85.59.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'limning boshqa turlari 85.6 Ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat 85.69 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat 85.69.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan ta'lim sohasidagi yordamchi faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ta'lim oluvchilarning bilimlarini rivojlantirish, kasbiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, ularning o'quv natijalariga erishishini ta'minlash, pedagogik sharoitlarni yaratish, ta'limni chuqurlashtirish va ehtiyojlarini qondirish, ta'lim dasturlarini amalga oshirilishini ta'minlash	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		23201 O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi	5
		23201 Oliy ma'lumotli o'qituvchi	6
		23201 Katta o'qituvchi	6
		23201 Yetakchi o'qituvchi	6
		23201 Bosh o'qituvchi	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	23201 O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi	A1.5	Kasbiy ta'lim dasturlari asosida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish	A1.01.5	O'quv-tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish
				A1.02.5	O'zlashtira olmagan o'quvchilar bilan yakka tartibda va guruhda ishlar olib borish, Davlat ta'lim standartlari talablariga binoan dasturiy materiallarning maksimal o'zlashtirilishini ta'minlash
				A1.03.5	O'quv jarayonini tashkil etish, nazorat va baholashni amalga oshirish
				A1.04.5	Muntazam ravishda o'zining kasbiy tayyorgarligini oshirib borish
2	23201 Oliy ma'lumotli o'qituvchi	B1.6	O'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy ishlarni bajarish	B1.01.6	Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga muvofiq nazariy va amaliy o'quv darslarini tayyorlash va o'tkazilishini ta'minlash
				B1.02.6	Ta'lim oluvchilar tomonidan olingan bilimlarni amaliyotga mustaqil tatbiq etishga tayyorlaydi, maslahatlar berish
				B1.03.6	Qiyin o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilar bilan guruhli va yakka tartibda mashg'ulotlar olib borish, dasturiy materialning davlat ta'lim standarti talablari asosida o'zlashtirilishini ta'minlash
				B1.04.6	Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq etish
		B2.6	Tashkiliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni bajarish	B2.01.6	Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish, ta'lim oluvchilarda kasb to'g'risida umumiy tushunchani shakllantirish
				B2.02.6	Amaliy mashg'ulotlarga masala va topshiriqlar, ta'lim oluvchilarning mustaqil, yakka tartibdagi va o'quv-izlanish ishlari, ularning bilimlarini nazorat qilish bo'yicha vazifalar tayyorlash
				B2.03.6	Biriktirilgan o'quv guruhida madaniy-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirish
3				D1.01.6	Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga muvofiq nazariy va amaliy o'quv darslarini tayyorlash va o'tkazilishini ta'minlash

4	23201 Katta o'qituvchi	D1.6	O'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy ishlarni bajarish	D1.02.6	Nazariy, amaliy, tajriba mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti, yakuniy davlat attestatsiyalari uchun didaktik, ko'rgazmali, tarqatma materiallar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash
				D1.03.6	O'zlashtirishida bo'shliqlari bo'lgan ta'lim oluvchilar bilan guruhliy va alohida ish olib borish, dastur materiallari, davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda to'liq o'zlashtirishini ta'minlash
				D1.04.6	Uslubiy qo'llanmalar, o'qitish materiallari to'plamlari yaratish, ta'lim sohasiga oid ilmiy-ommabop maqolalar nashr ettirish
		D2.6	Tashkiliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni bajarish	D2.01.6	Umumta'lim maktablari o'quvchilari va katta yoshdagilar o'rtasida kasbiy ta'limga yo'naltirish ishlari
				D2.02.6	Ochiq darslar, mahorat darslari o'tish, o'z tajribasini ommalashtirish
				D2.03.6	Guruhga rahbarlik, ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ish olib borish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish, ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirish
	23201 Yetakchi o'qituvchi	E1.6	O'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy ishlarni bajarish	E1.01.6	Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga muvofiq nazariy va amaliy o'quv darslarini tayyorlash va o'tkazilishini ta'minlash
				E1.02.6	Ta'lim standartlariga binoan o'quv materialining ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishini ob'yektiv baholashni ta'minlash uchun reyting nazoratini amalga oshirish
				E1.03.6	O'zlashtira olmagan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda va guruhda ishlar olib borish
				E1.04.6	Davomatni hisobga olib borish, qayta o'zlashtirishni tashkil etish
		E2.6	Tashkiliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni bajarish	E2.01.6	Mashg'ulotlar rejalarini ishlab chiqish, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari, yakuniy davlat attestatsiyasiga didaktik, ko'rgazmali va tarqatma materiallar, uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash
				E2.02.6	Umumta'lim maktablari o'quvchilari va katta yoshdagilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarni olib borish
				E2.03.6	Ochiq darslar o'tkazish, hamkasblari ochiq darslari tahlilini o'tkazish

5	23201 Bosh o'qituvchi	F1.6	O'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy ishlarni bajarish	F1.01.6	Dars beradigan fan (amaliyot) moduli bo'yicha Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga muvofiq nazariy va amaliy darslarini tayyorlash va o'tkazilishini ta'minlash
				F1.02.6	Nazariy, amaliy, tajriba mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti, yakuniy davlat attestatsiyalari uchun didaktik, ko'rgazmali, tarqatma materiallar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash
				F1.03.6	O'zlashtirishida bo'shliqlari bo'lgan ta'lim oluvchilar bilan guruhviy va alohida ish olib borish, dastur materiallari, davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda to'laonli o'zlashtirishini ta'minlash
				F1.04.6	Darsliklar va o'quv qo'llanmalari, darsliklarning elektron versiyalari, uslubiy qo'llanmalar yaratish, ilmiy maqolalar nashr ettirish
		F2.6	Tashkiliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni bajarish	F2.01.6	Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini o'tkazishni boshqarish, amalga oshirish
				F2.02.6	Ochiq darslar, mahorat darslari o'tish, o'z tajribasini ommalashtirish
				A2.03.6	Guruhga rahbarlik, ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ish olib borish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish, ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23201	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Dars beradigan o'quv fanlariga mos o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli, kamida 3 yil amaliy ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi; o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi; ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi; o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi; ta'lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi; majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1)o'rta maxsus professional ta'lim 2)boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	Norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Ishlab chiqarish ta'limi yo'riqchisi
	5	Laborant
	5	Kasbiy ta'lim tashkiloti ishlab chiqarish ta'limi ustasi
	5	Kasbiy ta'lim tashkiloti kasbiy ta'lim ustasi
	5	Ustaxona mudiri

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5 - Kasbiy ta'lim dasturlari asosida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish	A1.01.5 - O'quv-tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Dars beradigan fan-moduli bo'yicha o'quv reja va dasturlariga muvofiq mashg'ulotlarni o'tish
		2. Davlat ta'lim standartlari talablari doirasida mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish
		3. Ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash
		4. Darslarda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish
		5. Kasb fanlari yo'nalishida oliy ta'lim tashkilotlarida davriy malaka oshirish, ishlab chiqarishda tajriba oshirish, mentorlik asosidagi o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish
		Ko'nikmalar:
		Davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishchi guruhlar tarkibida faoliyat yuritish
		Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish
		Pedagogik faoliyati davomida o'ziga biriktirilgan guruhdagi, kursdagi ta'lim oluvchilarning bilimini mustaqil baholash uslublarini qo'llay olish
		Ta'lim oluvchilar tomonidan umumiy va kasbiy kompetensiyalarni o'zlashtirilishini kuzatish va tahlil qilish asosida ularni o'zini o'zi baholash va kasbiy rivojlanishini pedagogik qo'llab-quvvatlash vositalarini qo'llash, ushbu yo'nalishda amaliy maslahatlar berish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, ta'limga oid qonunosti hujjatlari
		Kasblar bo'yicha Davlat ta'lim standarti, Ta'lim dasturlari
		Dars beradigan o'quv fani, uning mazmuni va amaliy qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari
		Dars beradigan fani bo'yicha namunaviy fan dasturlar asosida ishchi o'quv-me'yoriy hujjatlar
		Nazorat-o'lchov va nazorat-baholash vositalarini ishlab chiqish, amalda qo'llash, nazorat va baholao' natijalarini tahlil qilish metodikalari
		Ta'lim tashkiloti va uning tashqarisida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, sanitar-gigienik me'yorlar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi talablari

	A1.02.5 - Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar	Mehnat harakatlari:
		1. Ta'lim oluvchilarning axloqiy, ma'naviy, madaniy, mehnatga munosabat tarbiyasini olib borish
		2. Ta'lim oluvchilar bilan individual ishlar olib borish, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish
		3. Ta'lim oluvchilarda mehnat madaniyati, mas'uliyat va tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish
		4. Ta'lim oluvchilarda ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish
		5. Ta'lim tashkiloti va ishlab chiqarish korxona, tashkilot, muassasalarida ta'lim oluvchilarning tartib-intizomga rioya qilishini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		O'qitadigan fanlari bo'yicha ta'lim jarayonida qo'llash uchun didaktik, ko'rgazmali, tarqatma materiallar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash
		Amaliy mashg'ulotlarga ta'lim oluvchilarning mustaqil, individual va o'quv-tadqiqot ishlari, ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun topshiriqlar ishlab chiqish
		Ilmiy-pedagogik, seminar-treninglar, ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish yuzasidan takliflar berish
		Bilimlar:
		Pedagogika va yoshlar psixologiyasi asoslari
		Mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tishda ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash usullari
		Ta'lim oluvchilarda barqaror kasbiy bilimlar shakllantirish usullari
	A1.03.5- O'quv jarayonini tashkil etish, nazorat va baholashni amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Dars rejalari, metodik qo'llanmalar tayyorlash
		2. Tarqatma-didaktik vositalar, testlar, nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun topshiriqlar ishlab chiqish
		3. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish
		4. Ta'lim oluvchilarning bilim darajasini - og'zaki, yozma, test usullarda nazorat qilish, baholash natijalarni elektron jurnalga qayd qilish, monitoringini yuritish
		5. Dars beradigan fan (modul) bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazish,
		6. Journallar, topshiriqlar, o'qituvchining o'quv-me'yoriy hujjatlari va boshqa ta'lim hujjatlarini yuritish
		Ko'nikmalar:
		Ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ish olib borish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish
		Ta'lim-tarbiya jarayonida samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash
		Shaxsiy namuna, estetika va etika me'yorlarini qo'llash, shaxsiy liderlikni shakllantirish

		Bilimlar:
		Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya
		Pedagogika, yoshlar psixologiyasi, andragogika asoslarini
		Ta'lim oluvchilar bilan individual va guruhli ishlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlarini
		O'quv-tarbiyaviy ishlarda o'qitishning ilg'or shakllari, ta'lim berayotgan fani bo'yicha darslar olib borishning tartibi va uslubiyotini, didaktik tamoyillarini
	A1.04.5- Malaka oshirish va o'z-o'zini rivojlantirish	Mehnat harakatlari:
		1. Davriy, masofaviy, muqobil oshirish kurslarida qatnashish
		Ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etish
		2. Dars beradigan fanlar sohasidagi yangiliklarni muntazam o'rganib borish
		3. Kasbiy ta'lim tashkiloti jamoasi bilan hamkorlikda ishlash
		4. Ustoz-shogird an'alarini davom ettirish, yosh o'qituvchilarga yordam berish.
		Ko'nikmalar:
		DTS, fan dasturlari mavzulari dolzarbligini aniqlay olish
		Ta'lim-tarbiyaga oid dolzarb mavzularda viloyat doirasida o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish
		Bilimlar:
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va foydalanuvchi dasturlarida ishlash tartiblari, o'z ish faoliyatida qo'llash usullarini
		Ish yuritish asoslari, amaliy faoliyatda ta'limning tadqiqot va tajriba-eksperimental usullarini
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik
		2. O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, shuningdek, biriktirilgan xodimlar mehnatini tekshirish va rivojlantirish
		3. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish
		4. Ta'lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etish
		5. Ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borish

Texnik va/yoki texnologik talab	Noutbuk yoki shaxsiy kompyuter, Proektor yoki interaktiv doska, Internet, Kompyuter savodxonligi: Microsoft Office dasturlarini (Word, Excel, PowerPoint) yaxshi darajada bilish, elektron pochta bilan ishlash, fayllarni tizimlashtirish, USB, printer, skaner kabi qurilmalardan foydalanish; Onlayn darslar uchun Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalardan, mashg'ulotlarda video ta'lim vositalarini foydalanish; Proektor, interaktiv doska, elektron jurnallardan foydalanish ko'nikmalari, LMS (Learning Management System) tizimlarini bilish; Fan sohasi bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni bilish: ta'lim berayotgan fan yo'nalishda qo'llaniladigan zamonaviy uskunalar va texnologiyalardan xabardor bo'lish, amaliy mashg'ulotlarda texnika xavfsizligi qoidalarini qo'llay olish; O'quv va ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'liq ko'nikmalar: kasbga oid maxsus uskunalarni ishlatish, laboratoriya ishlari va mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyalarini bilish; Raqamlashtirishga moslashuvchanlik: ta'lim jarayonini raqamlashtirishga doir ko'nikmalar - elektron testlar, interaktiv mashqlar yaratish, axborot xavfsizligi asoslari, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish qoidalarini bilish va rioya qilish; AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, LabVIEW, Arduino IDE Simulyatorlar: Proteus, Multisim 1C Buxgalteriya, Excel'da formula va avtomatlashtirish CRM tizimlari, elektron hujjat aylanmasi Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDRAW
---	--

Kasbning nomi:	Oliy ma'lumotli o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23201	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi; o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi; ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi; o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi; ta'lim tashkilotining ustaviga va barcha ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi; majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) bakalavriat 2) o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:		
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi.
	6	Tyutor
	6	Katta o'qituvchi
	6	Yetakchi o'qituvchi
	6	Bosh o'qituvchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	

B1.6- O'quv, o'quv- uslubiy va ilmiy ishlar	B1.01.6- Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga muvofig nazariy va amaliy o'quv darslarini tayyorlash va o'tkazilishini ta'minlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. O'qitadigan fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga muvofiq nazariy hamda amaliy o'quv darslarini tayyorlash va o'tkazilishini ta'minlash
		2. Davlat ta'lim standartlariga mos ravishda ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialining o'zlashtirilishini baholash uchun reyting nazoratini amalga oshirish
		3. O'qitadigan fanlari bo'yicha konsultatsiyalar o'tish, ta'lim oluvchilarning olingan bilimlarini mustaqil amaliyotga qo'llashga tayyorligini amalga oshirish
		4. Dars beradigan fanni o'zlashtirilishini ta'minlovchi o'quv xonasi - kabinet, auditoriya, trening xonalari, laboratoriya, sport zalining jihozlanishini ta'minlash, ulardan samarali foydalanish tadbirlarini olib borish
		5. Davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish
		6. Malaka oshirish va o'z-o'zini rivojlantirish, yuqori toifaga ega mentor bilan bilim, ko'nikma va tajribani oshirish bo'yicha hamkorlik
		7. Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, atrof muhit muhofazasi, sanitar-gigienik me'yorlarni bilish va ularga rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishchi guruhlar tarkibida faoliyat yuritish
		Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish
		Pedagogik faoliyati davomida o'ziga biriktirilgan guruhdagi, kursdagi ta'lim oluvchilarning bilimni mustaqil baholash uslublarini qo'llay olish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, ta'limga oid qonunosti hujjatlari
		Kasblar bo'yicha Davlat ta'lim standarti, Ta'lim dasturlari - malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari
		Dars beradigan o'quv fani, uning mazmuni va amaliy qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari
		Dars beradigan fani bo'yicha namunaviy fan dastur(modul)lari asosida ishchi o'quv-me'yoriy hujjatlari
		O'quv mashg'ulotlarida motivatsiyani rivojlantirish, ta'lim jarayonida sog'lom psixologik muhitni yaratish, ta'lim jarayonidagi nizoli vaziyatlarda yuzaga keladigan stresslarda barqarorlikni namoyon etish, o'quv faoliyatini tashkil etish

		va nazorat qilishning pedagogik, psixologik va metodik asoslari
		Katta yoshdagilarga ta'lim berish (andragogika) asoslari metodikalari
B1.02.6- Nazariy, amaliy, tajriba mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti, yakuniy davlat attestatsiyalari uchun didaktik, ko'rgazmali, tarqatma materiallar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash		Nazorat-o'lchov va nazorat-baholash vositalarini ishlab chiqish, amalda qo'llash, nazorat va baholash natijalarini tahlil qilish metodikalari
		Ta'lim tashkiloti va uning tashqarisida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, sanitar-gigienik me'yorlar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi talablari
		Mehnat harakatlari:
		1. Mashg'ulotlar rejalarini ishlab chiqish, amaliy, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti, Yakuniy davlat attestatsiyalari uchun didaktik, ko'rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlash
		2. O'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish
		3. O'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va ta'lim tashkiloti miqyosida amaliyotga qo'llashga taqdim etish, ta'lim-tarbiya jarayoniga oid maqolalar chop etis
		4. Tegishli fanlar bo'yicha respublika va viloyat miqyosida seminarlar, konferensiyalar, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish
		5. Ish beruvchilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan hamkorlikda kasbiy modul bo'yicha amaliy tayyorgarlik natijalari, mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni shakllantirish, ishlab chiqilgan materiallarni muhokama qilish, tasdiqlash va maliyotga tatbiq etish
		6. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish jarayonida attestatsiya komissiyasi tarkibida ta'lim dasturi o'zlashtirilishganligini baholash jarayonida ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		O'qitadigan fanlari bo'yicha ta'lim jarayonida qo'llash uchun didaktik, ko'rgazmali, tarqatma materiallar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash
		Amaliy mashg'ulotlarga ta'lim oluvchilarning mustaqil, individual va o'quv-tadqiqot ishlari, ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun topshiriqlar ishlab chiqish
		Ilmiy-pedagogik, seminar-treninglar, ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish yuzasidan takliflar berish
		Bilimlar:
		Pedagogika va yoshlar psixologiyasi asoslarini bilish
		Mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tishda ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash usullarini bilish
		Ta'lim oluvchilarda barqaror kasbiy bilimlar shakllantirish usullarini bilish

	B1.03.6- O'zlashtirishida bo'shliqlari bo'lgan ta'lim oluvchilar bilan guruhii va alohida ish olib borish, dastur materiallari, davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda to'laonli o'zlashtirishini ta'minlash	Mehnat harakatlari: 1. O'qitadigan fanlari bo'yicha ta'lim oluvchilar davomati va o'zlashtirishi hisobini yuritish, ta'lim oluvchilarning qo'shimcha va qayta o'zlashtirishini tashkil etish 2. O'zlashtirishida bo'shliqlari bo'lgan ta'lim oluvchilar bilan guruhii va alohida ish olib borish, davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda o'zlashtirishni ta'minlash Ko'nikmalar: Kadrlar tayyorlash sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni. Pedagogik va kasbiy muloqot nazariyasi va amaliyoti, yosh psixologiyasi va fiziologiyasini, andragogikani. Bilimlarni baholashning zamonaviy va samarali usullari, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishi va faolligini baholashning reyting tizimini. Bilimlar: Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya Pedagogika, yoshlar psixologiyasi, andragogika asoslari Ta'lim oluvchilar bilan individual va guruhii ishlash, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari O'quv-tarbiyaviy ishlarda o'qitishning ilg'or shakllari, ta'lim berayotgan fani bo'yicha darslar olib borishning tartibi va uslubiyotini, didaktik tamoyillari
	B1.04.6- Darsliklar va o'quv qo'llanmalari, darsliklarning elektron versiyalari, uslubii qo'llanmalar yaratish, ilmiy maqolalar nashr ettirish	Mehnat harakatlari: 1. Yakka tartibda yoki hammualliflikda kasb bo'yicha raqamli ta'lim resurslari, o'qitish materiallari to'plamlari ishlab chiqish tanlovlarda ishtirok etish 2. Ta'limga oid maqolalar yozish va respublika, viloyat ilmiy-ommabop nashrlarda chop ettirish 3. Elektron ta'lim va axborot zaxiralari, kasbiy ta'limning zamonaviy ta'lim texnologiyalarini, o'qitishning texnik vositalarini, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim va axborot zaxiralari, masofaviy ta'lim texnologiyalari va elektron o'qitishni qo'llashning psixologik-pedagogik asoslari va metodikasini Ko'nikmalar: Dars beradigan fan - moduli bo'yicha Davlat ta'lim standartlariga mosligi, fan dasturlari mavzulari dolzarbligini aniqlay olish Ta'lim-tarbiyaga oid dolzarb mavzularda viloyat doirasida o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish Bilimlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va foydalanuvchi dasturlarida ishlash tartiblari, o'z ish faoliyatida qo'llash usullari Ish yuritish asoslari, amaliy faoliyatda ta'limning tadqiqot va tajriba-eksperimental usullari

		1. Oldindan aytib bo'lmaydigan o'quv yoki kasbiy faoliyat muhitida qarorlar qabul qilish va birlashtirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uchun javobgarlik 2. O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasida qarorlar qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish, birlashtirilgan xodimlarning professional rivojlanishiga rahbarlik qilish va jamoadagi muammolarni hal qilish
	Mas'uliyat va mustaqillik:	
B2.6- Tashkiliy- uslubiy, ma'naviy- ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar	B2.01.6- Kasbiy ta'limga yo'naltirish ishlari.	Mehnat harakatlari:
		1. Kasbiy ta'limga yo'naltirish ishlari bo'yicha tarqatma-didaktik materiallar, elektron professiogrammalar tayyorlashda, "ochiq eshiklar kuni", "Kasb festivallari" va boshqa tadbirlarda ishtirok etish
		2. Umumta'lim maktablari o'quvchilari va katta yoshdagilarni kasbiy ta'limga yo'naltirish bo'yicha birlashtirilgan hududda tushuntirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish
		Ko'nikmalar:
		Pedagogik etika va muloqot psixologiyasi bo'yicha tushunchalarga ega bo'lish
		Kasbiy ta'lim tashkilotida tayyorlanadigan kasblar, bitiruvchilarning kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntira olish
		Kasbiy ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi, pedagoglar salohiyati, tarixi va istiqbolini namoyon qila olish
		Bilimlar:
		Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish
		Kasbning jozibadorligini yoritish
		Kasbiy ta'lim tashkilotida o'qitish tillarni bilish
	B2.02.6- Ochiq darslar, mahorat darslari o'tish, o'z tajribasini ommallashtirish.	Mehnat harakatlari:
		1. Ochiq va mahorat darslari o'quv-me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, dars mashg'ulotlarida zarur materiallarni tanlash, ta'lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirish, ta'lim oluvchilar jamoasini boshqara olish
		2. O'quv yilida kamida 2 ta ochiq dars o'tish
		3. Ustoz-shogird maktabida shogirdlik.
		4. Tajribali o'qituvchilar hamda hamkasblarining ilg'or tajribasini o'rganish va o'z faoliyatida qo'llash
		Ko'nikmalar:
		Ochiq darslar, mahorat darslari o'tish, o'z tajribasini ommallashtirish
		Ta'lim oluvchilar jamoasini uyushtira bilish, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham ta'lim oluvchilar jamoasini boshqarish, muammolarni hal etish bo'yicha tajribani oshirib borish
		Milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an'ana va urf-odatlarining asl mohiyatini tushunish, kuzatuvchanlik, pedagogik takt, nutq madaniyati

		Didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlar
		Bilimlar:
		O'qitishning ilg'or va samarali metodlari
		Ochiq darslarni o'tish texnologiyasi
		Pedagogik etika, muloqot madaniyati, shaxs psixologiyasi asoslari, kommunikativ texnologiyalar
	B2.03.6- Guruhga rahbarlik, ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ish olib borish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish, ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Zaruratdan kelib chiqib guruh rahbarligini olib borish, guruh tarbiyaviy ishlar rejasini ishlab chiqish
		2. Ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash rejasini ishlab chiqish.
		3. Ta'lim oluvchilarda vatanga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlar, jamiyatda o'rnatilgan an'analarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish
		4. Ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish, ularni qiziqishlari bo'yicha to'garaklarga jalb qilish
		5. Taaluqligicha fan olimpiadalari, sport musobaqalari, kasbiy, ma'naviy-ma'rifiy ko'rik-tanlovlarga ta'lim oluvchilarini tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Yoshlar psixologiyasi asoslari, muloqot kommunikatsiyasi
		Ta'lim oluvchilar bilan tarbiyaviy ish olib borish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish
		Ta'lim-tarbiya jarayonida samarali pedagogik texnologiyalarni qo'llash
		Shaxsiy namuna, estetika va etika me'yorlarini qo'llash, shaxsiy liderlikni shakllantirish
		Ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirish
		Bilimlar:
		Psixologiya, menejment, shaxs va rahbarlik kommunikatsiyasi asoslari
		Konstruktivlik, kommunikativ qobiliyatlar, muloqot madaniyati, ta'lim-tarbiyaning samarali metodlari
		Iqtidorli va ta'lim olishida qiyinchiliklar mavjud ta'lim oluvchilar tarkibi bilan ishlash metodlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Oldindan aytib bo'lmaydigan o'quv yoki kasbiy faoliyat muhitida qarorlar qabul qilish va birlashtirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uchun javobgarlik
		2. O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasida qarorlar qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish, birlashtirilgan xodimlarning professional rivojlanishiga rahbarlik qilish va jamoadagi muammolarni hal qilish
		3. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish

		4. Ta’lim tashkilotining ustaviga va boshqa ta’sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi talablari va pedagogik etika qoidalariga rioya etish 5.Ta’lim oluvchilar bilan ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish
	Texnik va/yoki texnologik talab	Noutbuk yoki shaxsiy kompyuter, proektor yoki interaktiv doska, printer/skaner, smartfon yoki planshet, internet Oflayn va onlayn tahrirlash vositalari (Microsoft Office (Word, Excel, PowerPoint) Test tuzish va baholash vositalari (Google Forms, Quizizz) Prezentatsiya va infografika yaratish dasturlari (Canva, Prezi, Piktochart) Mobil texnologiyalar va ilovalardan foydalanish: Kundalik yoki boshqa elektron jurnal tizimlari; Telegram/WhatsApp guruhlari orqali talabalar bilan aloqa; Raqamli savodxonlik va xavfsizlik Elektron pochtdan samarali foydalanish (Gmail, Outlook) Mutaxassislikka oid texnologik bilimlar <i>(yo’nalishlar xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi)</i> AutoCAD, SolidWorks, MATLAB, LabVIEW, Arduino IDE Simulyatorlar: Proteus, Multisim va h.k. 1C Buxgalteriya, Excel’da formula va avtomatlashtirish CRM tizimlari, elektron hujjat aylanm Adobe Photoshop, Illustrator, CorelDRAW Innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyati: AR/VR vositalar yordamida amaliy mashg’ulotlarni boyitish Onlayn kurs va sertifikatlar: Google for Education, UNESCO, Microsoft Educator va boshqalar

Kasbning nomi:	Katta o'qituvchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	23201	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi	
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yilgan talablar:	Dars beradigan o'quv fanlariga mos pedagogik yoki muhandis-pedagogik oliy ma'lumot, oliy ma'lumotli o'qituvchi lavozimida 3 yilgacha amaliy ish staji, ilmiy daraja yoki ilmiy unvon bo'lganda oliy ma'lumotli o'qituvchilik staji talab qilinmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi; o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi; ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishi; o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi; majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	1) bakalavriat 2) o'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi		
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	Kasbiy ta'lim tashkiloti pedagogi	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	O'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotli o'qituvchi.
	6	Tyutor
	6	Oliy ma'lumotli o'qituvchi
	6	Yetakchi o'qituvchi
	6	Bosh o'qituvchi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.6 O'quv, o'quv- uslubiy va ilmiy ishlar	D1.01.6- Davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalariga muvofig nazariy va amaliy o'quv darslarini tayyorlash va o'tkazilishini ta'minlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Dars beradigan fan (amaliyot) moduli bo'yicha Davlat ta'lim va o'quv rejalariga muvofiq nazariy hamda amaliy o'quv darslarini tayyorlash va o'tkazilishini ta'minlash
		2. Davlat ta'lim standartlariga mos ravishda ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialining o'zlashtirilish dinamikasi va motivatsiyasini joriy, oraliq, yakuniy nazorat qilish va baholashini baholash uchun reyting nazoratini amalga oshirish
		3. O'qitadigan fanlari bo'yicha konsultatsiyalar o'tish, ta'lim oluvchilarning olingan bilimlarini mustaqil amaliyotga qo'llashga tayyorligini amalga oshirish
		4. Kasbiy ta'lim tashkiloti shtat birliklarida muayyan kasblar bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi ustasi shtati ko'zda tutilmagan bo'lsa o'quv, mutaxassisligiga mos fan bo'yicha ishlab chiqarish amaliyotlari bo'yicha mashg'ulotlarning o'quv-me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqadi va mashg'ulotlarni o'tadi
		5. Fan (modul)lar bo'yicha ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish
		6. Dars beradigan fanni o'zlashtirilishini ta'minlovchi o'quv xonasi, auditoriya, laboratoriya, sport zalining jihozlanishini ta'minlash, ulardan samarali foydalanish tadbirlarini olib borish
		7. Davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish
		8. Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, atrof muhit muhofazasi, sanitar-gigienik me'yorlarni bilish va ularga rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, malaka talablari, o'quv rejalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishchi guruhlar tarkibida faoliyat yuritish
		Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish
		Pedagogik faoliyati davomida o'ziga birlashtirilgan guruhdagi, kursdagi ta'lim oluvchilarning bilimni mustaqil baholash uslublarini qo'llash
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, ta'limga oid qonunosti hujjatlari
		Kasblar bo'yicha Davlat ta'lim standarti, Ta'lim dasturlari - malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari

		Dars beradigan o'quv fani, uning mazmuni va amaliy qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari
		Dars beradigan fani bo'yicha namunaviy fan dasturlari asosida ishchi o'quv-me'yoriy hujjatlar
		Katta yoshdagilarga ta'lim berish (andragogika) asoslari
		Nazorat-o'lchov va nazorat-baholash vositalarini ishlab chiqish, amalda qo'llash, nazorat va baholash natijalarini tahlil qilish metodikalari
		Ta'lim tashkiloti va uning tashqarisida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, sanitar-gigienik me'yorlar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi talablari
	D1.02.6- Nazariy, amaliy, tajriba mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti, yakuniy davlat attestatsiyalari uchun didaktik, ko'rgazmali, tarqatma materiallar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Mashg'ulotlar rejalarini ishlab chiqish, amaliy, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti, Yakuniy davlat attestatsiyalari uchun didaktik, ko'rgazmali va tarqatma materiallar tayyorlash
		2. O'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish
		3. O'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va respublika (viloyat) miqyosida amaliyotga qo'llashga taqdim etish, ta'lim-tarbiya jarayoniga oid maqolalar chop etish
		4. Tegishli fanlar bo'yicha respublika va viloyat miqyosida seminarlar, konferensiyalar, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish, ilmiy-uslubiy mavzularda ma'ruzalar qilish
		5. Ish beruvchilar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan hamkorlikda kasbiy modul bo'yicha amaliy tayyorgarlik natijalari, mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni shakllantirish, ishlab chiqilgan materiallarni muhokama qilish, tasdiqlash va maliyotga tatbiq etish
		6. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish jarayonida attestatsiya komissiyasi tarkibida ta'lim dasturi o'zlashtirilishganligini baholash jarayonida ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		O'qitadigan fan(lar)i bo'yicha ta'lim jarayonida qo'llash uchun didaktik, ko'rgazmali, tarqatma materiallar va metodik ko'rsatmalar tayyorlash
		Amaliy mashg'ulotlarga ta'lim oluvchilarning mustaqil, individual va o'quv-tadqiqot ishlari, ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun topshiriqlar ishlab chiqish
		Ilmiy-pedagogik, seminar-treninglar, ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish yuzasidan takliflar berish
		Bilimlar:
		Pedagogika va yoshlar psixologiyasi asoslarini bilish

		Mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tishda ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash usullarini bilish
		Ta'lim oluvchilarda barqaror kasbiy bilimlar shakllantirish usullarini bilish
D1.03.6- O'zlashtirishida bo'shliqlari bo'lgan ta'lim oluvchilar bilan guruh va alohida ish olib borish, dastur materiallari, davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda to'laqonli o'zlashtirishini ta'minlash		Mehnat harakatlari:
		1. O'qitadigan fanlari bo'yicha ta'lim oluvchilar davomati va o'zlashtirishi hisobini yuritish, ta'lim oluvchilarning qo'shimcha va qayta o'zlashtirishini tashkil etish
		2. O'zlashtirishida bo'shliqlari bo'lgan ta'lim oluvchilar bilan guruh va alohida ish olib borish, davlat ta'lim standartlari talablariga mos ravishda o'zlashtirishni ta'minlash
		Ko'nikmalar:
